QORAQALPOQ TILIDA GLYUTTONIK DISKURS TADQIQINING DOLZARBLIGI

Nurlibekoba Gulxan Medetbekovna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
+998992501720, gulxan.nurlibekova@ndpi.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.15671931

Annotatsiya. *Bu maqolada zamonaviy tilshunoslikda taraqqiy etayotgan diskurs tushunchasining matn tushunchasi bilan bog‘liqligi va farqli tomonlari dunyo tilshunoslarining fikrlari asosida yoritib berilgan. O‘tgan asrning 50-yillaridan so‘ng paydo bo‘la boshlagan diskurs yo‘nalisining qoraqalpoq tilshunosligida o‘rganilishining dolzarb masalalari keltirilib, glyuttonik diskursni bevosita xalqning, millatning madaniyatiga bog‘laydi. Glyuttonik diskurslarni o‘rganish orqali madaniyatimizning mavhum asoslarini ochish, ko‘plab so‘zlarning etimologiyasini aniqlash va millat hayot tarzini, madaniy-ma’rifiy boyligini keng olamga ko‘rsatish, tanishtirish va targ‘ib etish imkonini beruvchi vosita sifatida qaralib, dolzarb ahamiyatga egaligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *diskurs, matn, madaniyat, lisoniy omillar, nolisoniy omillar, lingvokulturologiya, pragmatika, glyuttoniya, glyuttonik diskurs, qoraqalpoq tili, millat madaniyati.*

Аннотация. *В данной статье на основе мнений мировых лингвистов освещается связь и различие между понятием дискурс и понятием текста, широко разрабатываемым в современной лингвистике. Представлены важные вопросы изучения направления дискурса в каракалпакском языке, которые стали появляться после 50-х годов прошлого века, напрямую связывая глюттоническая дискурс с культурой народа, нации. Через изучение глюттоническая дискурсов отмечается как огромный инструмент, позволяющий раскрыть основы нашей культуры, определить этимологию многих слов, показать и представить всему миру жизнь, культурное и духовное богатство нации и обосновывает необходимость исследования.*

Ключевые слова: *дискурс, текст, культура, языковые факторы, неязыковые факторы, лингвокультурология, прагматика, глюттония, глюттоническая дискурс, каракалпакский язык, национальная культура.*

Annotation. *In this article, the connection and difference between the concept of discourse and the concept of text, which is widely developed in modern linguistics, is highlighted based on the opinions of world linguists. Important issues of the study of the direction of discourse in the Karakalpak language, which began to appear after the 50s of the last century, are presented, directly connecting the gluttonous discourse to the culture of the people, the*

nation. Through the study of gluttonous discourses, it is noted as a huge tool that allows us to reveal the foundations of our culture, to determine the etymology of many words, and to show and introduce the nation's life, cultural and spiritual wealth to the wider world, and justifies the need for research.

Keywords: *discourse, text, culture, linguistic factors, non-linguistic factors, linguoculturology, pragmatics, gluttony, gluttonous discourse, Karakalpak language, national culture.*

KIRISH

Diskurs - fanlararo tadqiqotlar mavzusi hisoblanib, nazariy tilshunoslikdan tashqari, kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellekt, psixologiya, falsafa va mantiq, sotsiologiya, antropologiya, etnologiya, adabiyot, semiotika, tarixshunoslik, ilohiyot, huquq, pedagogika, tarjima nazariyasi va amaliyoti, siyosat kabi boshqa diskurs bilan bog‘liq fan va tadqiqot sohalarining ham asosiy o‘rganish obyekti hisoblanadi. Bu fanlarning har biri diskursni o‘rganishda o‘ziga xos tarzda ishtirok etadi.

O‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab tilshunos olimlarning diqqati gapdan kattaroq birliklar doirasiga qaratila boshladi. Diskursga qiziqishning boshlanishi aynan o‘sha davrga to‘g‘ri keladi. Ammo atamaning qo‘llanish tarixi ancha qadim: 1950-yillarning boshida amerikalik tilshunos olim Z.Xarris gapdan kattaroq matn parchasini diskurs deb atagan. Fransuz tilshunosi E.Benvenist esa bu atamani muloqot jarayonida gapirishni anglatish uchun qo‘llagan. Lekin aynan 70-yillarga kelib xorijiy tilshunoslar - U.Cheyf, V.Deysler, J.Grayms, T.Van Deyklarning tadqiqotlari diskurs talqinini alohida fan yo‘nalishi sifatida shakllantirdi [3: 7].

ADABIYOTLAR SHARXI

Diskurs (fransuzcha discourse; inglizcha discourse; lotincha discursus - orqaga-oldinga yugurish; aylanma takroriy harakat; suhbat; gap) - ekstralingvistik-grammatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan boyitilgan izchil matn; voqeaga bog‘liq baholangan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qabul qilingan odamlarning o‘zaro ta’siri va ularning ongining mexanizmlarining (kognitiv jarayonlar) tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan gap. Shuning uchun "diskurs" atamasi, "matn" atamasidan farqli o‘laroq, jonli hayotga bo‘lgan aloqalar bevosita tiklanmaydigan qadimiy va boshqa matnlarga nisbatan qo‘llanilmaydi, deyiladi eng keng tarqalgan ta’riflarda [3: 7-8].

Diskurs - bir vaqtning o‘zida ham lisoniy faoliyat jarayoni, ham uning (faoliyatning) mahsuli hisoblanadi. Shunday qilib, diskurs bu insonlarning o‘zaro fikr almashishi, aloqasi, bir-biriga turli ma’lumotlarni yetkazishi, ma’lumotlarni yetkazish uchun turli vositalardan foydalanishi, ikkala suhbatdoshga ham tushunarli bo‘lgan jarayon diskurs deyiladi. Diskurs dialogik va monologik ko‘rinishda uchrashi mumkin. Pragmatik ifodalar bo‘yicha diskurs atamasi sakkiz xil ma’noda uchrashi aniqlangan:

1) so‘z alternativi;
2) frazalardan o‘lchami bo‘yicha ortuvchi birlik;
3) nutq sharoiti hisobga olingan holda fikrning adresatga ta’siri;
4) suhbat;
5) nutqda so‘zlovchining pozitsiyasi;
6) til birliklaridan foydalanish;
7) fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan shakli;

8) matn hosil bo‘lish shartlarini o‘rganishga mo‘ljallangan nazariy qurilmalar [2: 155].

Filologiya fanlari doktori, professor G.Odilova "Glyuttonik diskurs asoslari" nomli monografiyasida diskursning umumiy tavsifini berishda T.Van Deyk, V.E.Chernyavskaya, V.E.Kibrik, N.D.Arutyunova, V.I.Karasik, R.A.Karimova kabi olimlarning fikrlarini keltiradi [3: 6-7]. Masalan: Diskurs - kommunikativ harakatning yozma yoki og‘zaki verbal mahsuli; Diskurs matn bilan birga uning paydo bo‘lishi va qabul qilinishiga ta’sir etuvchi nolisoniy omillarni o‘z ichiga olgan murakkab kommunikativ hodisa; Diskurs - kommunikantlarning ongini o‘z ichiga olgan kommunikativ vaziyat va muloqot jarayonida paydo bo‘lgan matn; Diskurs - so‘zlashuv holatiga kirgan matn; Diskurs - voqea bo‘yicha olingan ekstralingvistik, pragmalingvistik va boshqa omillar bilan birlashtirilgan izchil matn; Diskurs - ma’lum kognitiv va tipologik tarzda shartli aloqa makoni amalga oshiriladigan kommunikativ hodisa. Zamonaviy tadqiqotlar nuqtai nazaridan diskurs murakkab kommunikativ hodisa bo‘lib, matnga qo‘shimcha ravishda uni tushunish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha lingvistik omillarni (fikrlar, dunyo haqidagi bilimlar, qabul qiluvchining maqsadlari, munosabatlari) o‘z ichiga oladi.

Diskurs - suhbat turi bo‘lib, u janr kabi. Nutq janri - tipik tuzilishi, lisoniy vositalardan foydalanishning o‘ziga xosligi, aniq adresat, ma’lum kommunikativ maqsad va informativlik, imperativlik, etiketlik kabi jihatlari bilan ajralib turuvchi nutq turi hisoblanadi. Har qanday diskurs matn, lekin har qanday matn diskurs emas [2: 155].

"Diskurs" atamasi tilshunoslik sohasida juda ko‘p qo‘llaniladigan atamalardan biriga aylangan. Tarixiy jihatdan bu atama birinchi marta amerikalik tilshunos Z.Xarrisning 1952-yilda e’lon qilingan "Discourse Analysis" (Diskurs tahlili) deb nomlangan maqolasida qo‘llanilgan. Diskurs bu so‘zlovchi va tinglovchining o‘zaro fikr almashish, bir-biriga ta’sir ko‘rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o‘zlari uchun eng unumli, samarali va qulay deb hisoblagan ko‘rinish va shakldan amaliy foydalanish jarayonidir.

Diskurs so‘ziga yana bir tushuncha, lotincha "discursus" - muhokama so‘zidan olingan bo‘lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya’ni muhokama talab qilinmaydigan bilimdan farqli ravishda, muhokama orqali hosil bo‘ladigan mantiqiy dalil - dalillanuvchi bilimdir. Bu ta’rifda diskursning muhokama, suhbat qilish ma’nosi ilgari suriladi. Boshqa bir tushunchada, lotin tilidagi "dis" uzoq ma’nosidagi prefiksdan va yugurish ma’nosini beruvchi "currere" o‘zagidan olingan.

Tilshunoslikda diskurs bir gapdan ham uzunroq til birligiga qaratiladi. Diskurs keng tarixiy ma’nolarni yetkazishda tilning ijtimoiy jihatdan qo‘llanilishi. Bu qo‘llanilishning ijtimoiy sharoitlari, kim va qanday sharoitlarda qo‘llanayotgani bilan belgilanadigan til. Til hech qachon neytral bo‘la olmaydi, chunki u bizning shaxsiy va ijtimoiy dunyolarimizni bog‘lashga xizmat qiladi.

Diskurs bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan Z.Xarris, N.Arutyunova, V.Grigoreva, T.Van Deyk, V.Karasik, R.Karimova, A.Kibrik, V.Krasnix, E.Kubryakova, M.Makarov, O.Mixaleva, L.Yorgensen, M.Chernyavskaya, V.Yakobson, A.Olyanich, I.Derjaveckaya, Sh.Safarov, G.Odilova va boshqa olimlarning ishlarini, fikrlarini o‘rganish orqali diskurs yo‘nalishining yanada kengayishi va rivojlanishiga hissa qo‘shamiz.

Diskurs haqidagi savollarga javob sifatida V.M.Undrichova, V.Z.Demyankov, V.V.Krasnix, N.N.Mironova, E.N.Mishkurov, E.V.Sidorov, N.B.Grabovskiy, A.A.Kibrik, V.I.Karasik, M.Stabs, P.Serio, M.L.Makarov, A.V.Olyanich, o‘zbek olimlaridan O‘.Q.Yusupov, N.Mahmudov, B.Mengliyev, Sh.Safarov, L.Raupova va b. olimlarning ko‘pchiligi diskurs nima, uning turlari qanday, komponentlari nimalardan iborat, umumiy tavsifi, ta’rifi, shakliy tuzilishi va turlarini aniqroq ko‘rsatib berishga harakat qilgan. Olim E.S.Kubryakova esa, -tilshunoslik

fanining hozirgi rivojlanishi davrida diskursning umumiy qabul qilingan birorta ham ta’rifi yo‘q, - degan fikrni bildiradi.

METODOLOGIYA

Jamiyatdagi har bir sohaga tegishli diskurslar mavjud. Bulardan glyuttonik diskursni o‘rganishning ahamiyati haqida f.f.d., professor G.Odilova shunday deb yozadi: Jahon tilshunosligining muhim masalalaridan biri tilning ma’lum qatlamlarida uchraydigan xususiy diskurslarning lisoniy, ijtimoiy, madaniy, antropologik, semiotik xususiyatlarini o‘rganishdan iborat. Shuningdek, adabiyot va ijtimoiy-maishiy sohalarda uchraydigan diskursning qo‘llanilish doirasini tadqiq etish keng o‘rganilayotgan muammolardan hisoblanadi. Glyuttonik diskurs muayyan xalq madaniyati, adabiyoti, turmush tarzi va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. "Gluttoniya" so‘zi qadimgi fransuz va o‘rta ingliz tillaridagi glutonie, lotincha gluttire ("yutish") so‘zidan olingan bo‘lib, bu so‘z gula "tomoq" degan ma’noni anglatadi. "Glyutoniya" so‘zi oziq-ovqat jarayonini uyg‘un holda, ya’ni uni topishdan boshlab, yarimfabrikatlarni qayta ishlash va qo‘llashga yaroqli mahsulot tayyorlashgacha bo‘lgan bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Glyuttonik diskurslarning lisoniy xususiyatlarini tadqiq etish, gastronomik atamalarning lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganish, millat hayoti, dunyoqarashi va adabiyotdagi o‘rnini belgilashda yordam beradi. Milliy madaniyatni targ‘ib qilishda glyuttonik freymlar va arxetiplarni qayta yaratish masalasi juda dolzarb [3: 3-4].

TADQIQOT NATIJASI

Darhaqiqat, xalq o‘z turmush tarzini dunyoga tanitishda, millat o‘z milliyligi va madaniyatini dunyoga namoyon etishda til vositasining o‘rni katta. Bir millatning hayotiga xos bo‘lgan milliy o‘ziga xoslikni boshqa xalqlarga ham tanishtirishda unda qo‘llaniladigan glyuttonik diskurslarning ham ma’lum hissasi bor. Ularni o‘rganish va tadqiq qilish orqali tilimizdagi ko‘plab glyuttonik so‘zlarning etimologiyasini ham aniqlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishimiz mumkin. Undagi so‘zlarning semantik talqini va ularning denotatga (nutq parchasida nazarda tutilgan nolisoniy faoliyat obyektlari) munosabati bu denotatlarning madaniy-ekologik, tarixiy-geografik tavsifini tiklashga yordam beradi. Istalgan madaniyatni qayta tiklash tilshunoslik, etnografiya, folklorshunoslik, arxeologiya va madaniyatshunoslik hamkorligida amalga oshiriladi.

Glyuttonik diskursning tadqiqi xorijiy tilshunoslikda 1960 - 1970-yillarda K.Levi-Stross, R.Bart va M.Duglas tadqiqotlarida etnomadaniy mifologiya va din nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Glyuttonik diskurs - iste’mol qilinadigan oziq-ovqat bilan bog‘liq muloqot jarayonida tilning o‘ziga xos xususiyatini yuzaga chiqarish yo‘llaridan biri. Uni yeyish jarayoni millatlarning etnik, diniy qarashlari natijasi bo‘lsa, "ovqat" shu millatning gastronomik kommunikatsiyasiga xos bo‘lgan bir qator semiotik xususiyat, ma’naviy birlikni o‘zida mujassamlashtirgan dominant tushuncha sifatida asosiy o‘rinni egallaydi [3: 27]. Glyuttonik diskursning lisoniy jihatlarini o‘rganish, tilning gastronomik olami milliy lisoniy aksini chuqurroq anglashga yordam bersa, gastronomik olam haqidagi qarashlar bilan tanishish millatning hayoti, turmush tarzi, dunyoqarashi, madaniyati, tirikchiligi, yashash sharoiti, ijtimoiy muhiti, umuman o‘sha millatning ruhi haqida ham aniq tasavvurlar hosil qilishga yordam beradi.

DISKUSSIYA

Har bir xalqning tilidagi glyuttonik diskursda ma’lum konseptlar bor, ular shu millatning madaniyati darajasigacha ko‘tarilgan. Ya’ni, eng tansiq taom bo‘ladimi yoki faqat o‘sha xalqda yetishtiriladigan, boshqa xalqlar uchun sevimli, qiymati juda yuqori bir mahsulot bo‘ladimi, uni ko‘rganingizda yoki yeganingizda, o‘sha millatning madaniyati, milliy g‘ururi ekanligi ma’lum

bo‘ladi. Masalan, fransuzlarda vino, italyanlarda pitsa, spagetti, nemislarda frankfurt kolbasalari va bavariya pivosi, turklarda qahva, o‘zbeklarda palov, qoraqalpoqlarda jo‘xori guruch, qozoqlarda beshbarmoq va h.k. kabi. Hattoki, jamiyatimizdagi barcha oilaning ham o‘ziga xos bo‘lgan delikates taomlari bo‘ladi. Shuning uchun, har bir millatning, xalqning milliyligini aks ettiradigan, uni bir joydan ikkinchi joyga tashiydigan ma’lum konseptlar bo‘ladi. Va, ularni lingvokulturologik, lingvopragmatik jihatdan o‘rganish bizga ko‘plab madaniyatimizning yangi asoslarini anglashda yordam beradi. Natijada millatimiz, xalqimizning bebaho madaniyatini dunyo miqyosida baham ko‘rishimiz, tarqatishimizga bir imkoniyat tug‘iladi. Shu bois ushbu yangi yo‘nalishni tadqiq etish va o‘rganish dolzarb masalalardan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, filologiya fanlari doktori, professor Sh.Abdinazimov va X.Tolibayevning ishida berilgan, -tilning sirlari insoniyatning asosiy sirlaridan biri bo‘lib qoladi. Chunki, rivoyatlarda Yaratguvchi odamni "olim" deb atab, farishtalarning unga bosh egishini buyurganida, Odamning ismlar ilmini bilishini nazarda tutgan edi ("Qissasi Rabg‘uziy"). Agar biz til sirlarini kashf eta olsak, ko‘p asrlik va yo‘qolgan bilimlar xazinasi ochiladi. Bizning maqsadimiz - til birligi anglatadigan madaniy "bo‘yoq"ni ko‘ra bilishga yordam berishdir. Bu belgi tilning ichki tuzilishini tashqi shaklga bog‘lay olish imkoniyatini beradi, -degan xulosani yuqoridagi fikrimizni isbotlash maqsadida keltiramiz.

Diskursga bo‘lgan qiziqish o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlangan bo‘lsa, qoraqalpoq tilshunosligiga endi kirib kelayotgan yo‘nalishlardan va bu bo‘yicha hali maxsus tadqiqotlar e’lon qilinmagan. Bu holat ham diskursni, jumladan milliy madaniyatimizni aks ettiruvchi glyuttonik diskursni o‘rganishga bo‘lgan eng asosiy va muhim sabablardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdinazimov Sh., Tolıbaev X. Lingvokulturologiya. Nókis. «Qaraqalpaqstan». 2020.
2. Ruziyeva N. Zamonaviy tilshunoslikda matn va diskurs talqini // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti // 2023. №1.
3. Одилова Г. Глюттоник дискурс асослари. Монография. Тошкент. «Mumtoz so‘z». 2020.